

J.K. ROWLING ASARLARIDA MIFOLOGIK OBRAZLARNING INTERTEKSTUAL XUSUSIYATLARI

Nurmatova Madina Toxir qizi

*Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
Filologiya va tillarni o’qitish: ingliz tili yo’nalishi 3-kurs talabasi*

Email: nurmatovamadina69@gamil.com Tel: +99894-218-13-78

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21155050>

Annotatsiya: Ushbu maqolada J.K.Rowling (J.K.Rouling) asarlaridagi mifologik obrazlarning intertekstual xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida Harry Potter (Garri Potter) seriyasida qo’llanilgan afsonaviy mavjudotlar, arxetipik qahramonlar hamda qadimgi mifologik motivlarning zamonaviy fantastika adabiyotidagi talqini tahlil qilinadi. J.K.Rouling yaratgan obrazlarning yunon mifologiyasi, Yevropa folklori va o’rta asr afsonalari bilan bog’liqligi qiyosiy adabiy tahlil asosida yoritiladi. Tadqiqotda intertekstuallik nazariyasi, mifologik tanqid va ramziy tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar J.K.Rouling fantastika olamini yaratishda qadimgi mifologik manbalardan samarali foydalanganini hamda ularni zamonaviy kitobxon tafakkuriga moslashtirganini ko’rsatadi.

Kalit so’zlar: intertekstuallik, mifologiya, fantastika adabiyoti, mifologik obraz, Garri Potter, folklor, arxetip, ramziylik, afsonaviy mavjudot, qiyosiy tahlil

Abstract: This article examines the intertextual features of mythological images in the works of J.K. Rowling. The study analyzes mythical creatures, archetypal characters, and mythological motifs used in the Harry Potter series and their interpretation in modern fantasy literature. The connection between Rowling’s fictional images and Greek mythology, European folklore, and medieval legends is explored through comparative literary analysis. The research applies the theories of intertextuality, myth criticism, and symbolic analysis. The findings demonstrate that J.K.Rowling effectively adapted ancient mythological elements to the context of contemporary fantasy literature and modern readers.

Keywords: intertextuality, mythology, fantasy literature, mythological image, Harry Potter, folklore, archetype, symbolism, mythical creature, comparative analysis

Аннотация: В данной статье исследуются интертекстуальные особенности мифологических образов в произведениях J.K. Rowling. В ходе исследования анализируются мифические существа, архетипические персонажи и древние мифологические мотивы, использованные в серии Harry Potter, а также их интерпретация в современной фэнтезийной литературе. Связь созданных Роулинг образов с греческой мифологией, европейским фольклором и средневековыми легендами раскрывается на основе сравнительного литературного анализа. В исследовании использованы методы интертекстуального, мифологического и символического анализа. Результаты показывают, что Роулинг успешно

адаптировала древние мифологические элементы к современной фэнтезийной литературе и восприятию современного читателя.

Ключевые слова: интертекстуальность, мифология, фэнтези литература, мифологический образ, Harry Potter, фольклор, архетип, символизм, мифическое существо, сравнительный анализ

Kirish. Zamonaviy fantastika adabiyoti jahon adabiyotining eng ommabop va keng rivojlanayotgan yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu janrda mifologik motivlar, afsonaviy mavjudotlar va qadimgi folklor elementlari muhim badiiy vosita sifatida qoʻllaniladi. Ayniqsa J.K.Rowling (J.K. Rouling) ijodi fantastik adabiyotda mifologik va intertekstual elementlarning zamonaviy talqinini yaratganligi bilan ajralib turadi. Muallifning Harry Potter (Garri Potter) seriyasi nafaqat bolalar adabiyoti, balki zamonaviy fantastik janrining yirik fenomenlaridan biri sifatida baholanadi.

Intertekstuallik tushunchasi ilk bor Julia Kristeva (Yuliya Kristeva) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan boʻlib, u har qanday matn boshqa matnlar bilan uzviy bogʻliq holda shakllanishini taʼkidlaydi [6]. Roland Bart (Roland Barthes) esa matnni koʻplab madaniy va adabiy kodlarning kesishuv nuqtasi sifatida izohlaydi [1]. Shu sababli zamonaviy fantastika adabiyotida mifologik motivlarning qayta ishlanishi intertekstual hodisa sifatida baholanadi.

Carl Jung (Karl Yung) arxetiplarni insoniyatning kollektiv ong ostida saqlanib qolgan qadimiy ramziy modellar deb hisoblaydi [5]. Yung nazariyasiga koʻra, qahramon, donishmand, zulmat yoki qayta tugʻilish kabi obrazlar turli davr adabiyotida takrorlanib keladi. J.K.Rouling asarlarida ham ushbu arxetipik modellar zamonaviy fantastika shaklida qayta talqin qilingan.

Fantastika adabiyoti tadqiqotchisi Farah Mendlesohn fantastika olamining asosiy xususiyati sifatida “secondary world (ikkilamchi olam)” konsepsiyasini koʻrsatadi [7]. Nemickiené va Vengaliené J.K.Rouling yaratgan sehrgarlar olamini zamonaviy fantastika adabiyotidagi eng mukammal ikkilamchi olam namunalaridan biri sifatida baholaydi [9]. Tadqiqotchilar ushbu olamning oʻziga xos ijtimoiy tizim, madaniyat va mifologik qatlamga ega ekanligini taʼkidlaydi.

Sola Antequera J.K.Rouling asarlaridagi mifologik va diniy motivlar postmodern fantastika estetikasining muhim tarkibiy qismi ekanligini qayd etadi [12]. Tadqiqotchining fikricha, Garri Potter seriyasidagi koʻplab obrazlar qadimgi yunon mifologiyasi va Yevropa folklori asosida shakllangan.

Tadqiqotning dolzarbligi J.K.Rouling asarlaridagi mifologik obrazlarning intertekstual tabiatini oʻrganish hamda fantastika adabiyotida qadimgi mifologiyaning transformatsiyasini tahlil qilish bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi Garri Potter seriyasidagi mifologik obrazlarning kelib chiqishi, ramziy maʼnosi va intertekstual xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida qiyosiy adabiy tahlil, mifologik tahlil hamda intertekstual yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Asosiy qism. Mazkur tadqiqotda J.K.Rouling asarlaridagi mifologik obrazlarning intertekstual xususiyatlarini aniqlash maqsadida bir necha ilmiy

metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy obyektni Garri Potter seriyasida uchraydigan afsonaviy mavjudotlar, mifologik motivlar va arxetipik obrazlar tashkil etadi. Tadqiqot predmeti esa ushbu obrazlarning qadimgi mifologiya va folklor bilan bogʻliqligi hamda ularning zamonaviy fantastika adabiyotidagi talqinidir.

Tadqiqot davomida qiyosiy adabiy tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu metod yordamida Garri Potter seriyasidagi mifologik obrazlar qadimgi yunon mifologiyasi, Yevropa folklori va oʻrta asr afsonalari bilan solishtirildi. Xususan, Feniks (qayta tugʻiluvchi qush), Vasilisk (Basilisk-oʻlim keltiruvchi ilon), Unicorn (bir shoxli afsonaviy ot) va Werewolf (boʻri-odam) kabi obrazlarning tarixiy-mifologik ildizlari oʻrganildi. Jozef Campbell (Jozef Kempbell) mifologik qahramonlar tizimi turli davr adabiyotida qayta takrorlanishini taʼkidlaydi [3]. Shu jihatdan J.K.Rouling asarlaridagi koʻplab obrazlar klassik mifologik modellar asosida yaratilganligi kuzatiladi.

Tadqiqotda intertekstual tahlil metodidan ham foydalanildi. Yuliya Kristeva nazariyasiga koʻra, har bir matn boshqa matnlarning oʻzaro kesishuvi natijasida shakllanadi [6]. J.K.Rouling asarlarida qadimgi mifologik manbalar, diniy motivlar va folklor elementlari zamonaviy fantastik adabiyot kontekstida qayta talqin qilingan. Ayniqsa, afsonaviy mavjudotlarning tasviri va ramziy funksiyasi intertekstual bogʻliqlikning muhim koʻrinishi sifatida namoyon boʻladi.

Mifologik tahlil metodidan foydalanish orqali asardagi arxetipik obrazlarning ramziy maʼnolari oʻrganildi. Karl Yung arxetiplarni insoniyatning kollektiv ongiga xos universal ramzlar sifatida baholaydi [5]. Tadqiqot davomida Garri Potter qahramoni “qahramon arxetipi”, Dambldor esa “dono ustoz arxetipi” sifatida tahlil qilindi. Voldemort obrazi esa zulmat va vayronkor kuch timsoli sifatida talqin qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda kontent tahlili metodidan foydalanildi. Ushbu metod yordamida Garri seriyasidagi mifologik obrazlarning qoʻllanish chastotasi, ularning syujetdagi funksiyasi hamda ramziy yuklamasi tahlil qilindi. Nemickiené va Vengaliené fantastik ikkilamchi olam tushunchasini J.K.Rouling asarlaridagi eng muhim badiiy xususiyatlardan biri sifatida koʻrsatadi [9]. Tadqiqot davomida sehrgarlar olamining mifologik qatlamlari ham shu nuqtai nazardan oʻrganildi.

Feniks obrazi J.K.Rouling ning *Garri Potter* seriyasida qayta tugʻilish, abadiylik va ruhiy yangilanish ramzi sifatida muhim oʻrin egallaydi. Qadimgi Misr va yunon mifologiyasida Feniks oʻzini yoqib yuborib, kuldan qayta tiriluvchi afsonaviy qush sifatida tasvirlanadi. Ushbu motiv Jozef Kempbell tomonidan qahramonning “qayta tugʻilish bosqichi” sifatida universal mifologik modelning muhim qismi deb talqin qilinadi [3].

Mircea Eliade esa qayta tugʻilish gʻoyasini sakral yangilanish, yaʼni insonning ruhiy va maʼnaviy tiklanish jarayoni sifatida izohlaydi [4]. J.K.Rouling Feniks obrazini aynan shu mifologik model asosida qayta ishlab, uni faqat sehrli mavjudot sifatida jonlantiribgina qolmay, balki umid va ichki kuch ramziga aylantiradi. Ayniqsa, Dambldor bilan bogʻliq sahnalarda Feniks sadoqat va himoya timsoli sifatida namoyon boʻladi.

Karl Yung ning arxetiplar nazariyasiga koʻra, qayta tugʻilish inson kollektiv ongiga xos universal model hisoblanadi [5]. Feniksning kuldan qayta

tirilishi ushbu arxetipik strukturani to’liq ifodalaydi va asarda psixologik yangilanish g’oyasini kuchaytiradi.

Intertekstuallik nazariyasiga ko’ra, har qanday matn boshqa matnlar bilan o’zaro bog’liq holda shakllanadi [6]. Shu nuqtai nazardan Feniks obrazi qadimgi mifologik matnlarning zamonaviy fantastika kontekstidagi qayta talqini bo’lib xizmat qiladi. Barthes (1977) ham matnlarning qayta ishlab chiqilishi va transformatsiyasini intertekstual jarayon sifatida tushuntiradi.

Nemickienė va Vengalienė (2023) J.K.Rouling yaratgan ikkilamchi fantastik olam mifologik tizimlar va zamonaviy narrativ strukturalarning uyg’unlashuvi asosida qurilganini ta’kidlaydi. Feniks shu olam ichida mifologiya va zamonaviy syujetni bog’lovchi intertekstual belgi vazifasini bajaradi[9].

Sola Antequera (2021) esa Feniks kabi mifologik mavjudotlarning postmodern fantastika estetikasida qayta interpretatsiya qilinib, yangi ma’no qatlamlariga ega bo’lishini qayd etadi.

Basilisk (o’lim keltiruvchi ilon) qadimgi Yevropa folklorida o’lim va qo’rquv keltiruvchi mavjudot sifatida tasvirlanadi. J.K.Rouling uni “Harry Potter and the Chamber of Secrets (Garri Potter va Maxfiy hujra)” asarida yovuzlikning timsoli sifatida qo’llaydi. Yung nazariyasiga ko’ra, Basilisk inson ongidagi “soya arxetipi”ni ifodalaydi, ya’ni ichki qorong’ulik va qo’rquv ramzidir [5].

Werewolf (bo’ri-odam) obrazi inson va hayvon instinktlari o’rtasidagi ichki ziddiyatni ifodalaydi. Remus Lupin obrazida bu dualizm axloqiy va psixologik ziddiyat sifatida ko’rsatiladi. Bensahla Tani et al. (2021) fantastika adabiyotida intertekstuallik turli mifologik tizimlarning uyg’unlashuvi orqali yuzaga kelishini ta’kidlaydi, va bo’ri-odam obrazi ham inson-hayvon chegarasining intertekstual ifodasidir[2].

Unicorn (bir shoxli afsonaviy ot) qadimgi mifologiyada poklik, begunohlik va ilohiylik ramzi hisoblanadi. J.K.Rouling asarlarida u himoya va sof energiya timsoli sifatida tasvirlanadi. Eliade (1963) mifologik mavjudotlar “sakral makon”ni ifodalashini ta’kidlaydi, unicorn esa aynan shu muqaddaslik konsepsiyasining yorqin misolidir.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, J.K.Rouling asarlaridagi mifologik obrazlar oddiy fantastik elementlar emas, balki chuqur intertekstual va arxetipik tizimga ega badiiy birliklardir. Feniks (qayta tug’iluvchi qush), Vasilisk (Basilisk-o’lim keltiruvchi ilon), Unicorn (bir shoxli afsonaviy ot) va Werewolf (bo’ri-odam) kabi obrazlar qadimgi mifologiya, folklor va zamonaviy fantastika adabiyoti o’rtasida ko’prik vazifasini bajaradi.

J.K.Rouling mifologik obrazlarni qayta ishlash orqali ularni zamonaviy kitobxon uchun tushunarli va psixologik jihatdan yaqin shaklga keltiradi. Bu jarayon intertekstuallik nazariyasi (Kristeva, 1980) va arxetiplar nazariyasi (Jung, 1968) asosida tushuntiriladi. Shunday qilib, Garri Potter seriyasi mifologiyaning zamonaviy adabiyotdagi transformatsiyasini aks ettiruvchi muhim intertekstual model hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Barthes, R. (1977). Image, music, text. Hill and Wang.
2. Bensahla Tani, S., Baghli Berbar, S., & Hamza Reguig-Mouro, W. (2021). Aspects of intertextuality in fantasy adaptation through The Lord of

the Rings, Harry Potter and Game of Thrones. Volume 6(1), 167–173. Tlemcen University, LLC Lab.

3. Campbell, J. (2004). The hero with a thousand faces. Princeton University Press.

4. Eliade, M. (1963). Myth and reality. Harper & Row.

5. Jung, C. G. (1968). Man and his symbols. Doubleday.

6. Kristeva, J. (1980). Desire in language: A semiotic approach to literature and art. Columbia University Press.

7. Mendlesohn, F. (2008). Rhetorics of fantasy. Wesleyan University Press.

8. Metla, S., & Sudha Devi, Y. V. (2024). Meaningful miracles: Unraveling eucatastrophe in the select fantasy fiction of J. K. Rowling. RUDN Journal of Studies in Literature and Journalism, 29(4), 673–684

9. Nemickienė, Ž., & Vengalienė, D. (2023). Secondary world in fantasy tradition after J. K. Rowling. Respectus Philologicus, 43(48).

10. Rowling, J. K. (1997–2007). Harry Potter series. Bloomsbury Publishing.

11. Serikov, A. E., & Ryabov, V. S. (2021). Signs and meanings of sacrifice in J. K. Rowling’s Harry Potter and the Philosopher’s Stone. Semiotic Studies Journal, 1(3), 13–19.

12. Sola Antequera, D., & Marcos Arteaga, I. (2021). Magia, religión y mito: Harry Potter bajo el signo de la posmodernidad. Historia del Arte Journal.